



## STILISTIK (USLUBIY) XATOLARNI BARTARAF QILISH YO'LLARI

**Isaqova Bibimashrab Shokirjon qizi**

*Toshkent viloyati Chinoz tumani*

*XTB tasarrufiga qarashli 2-son*

*umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada bolalar va o'quvchilar nutqidagi stilistik(uslubiy) nuqsonlarni yuzaga kelish sabablari, stilistik xatolarni aniqlash va ularni bartaraf qilish yo'llari haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Bola, o'quvchi, stilistika, tarbiya, ta'lim*

**Keywords:** *Child, student, stylistic, upbringing, education*

O'quvchilar nutqidagi stilistik nuqsonlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish ona tili o'qitishning faol masalalaridan biridir. Maktablarda stilistik xatolarni orfografik xatolar qatoriga kiritib, ularni bartaraf qilishga yetarlicha e'tibor bermaydilar.

Stilistik xatolar nima va ular orfografik xatolardan qanday farq qiladi?

Stilistika-yunoncha *stylos*-yozuv, xat tayoqchasi degan ma'noni anglatadi.

Nutqda so'z va gaplarni o'z o'rnida ishlatmaslik, shuningdek ularni noo'rin takrorlash, so'z va gaplarni noto'g'ri takrorlash, tushirib qoldirish, so'z va gaplarni noto'g'ri Grammatik aloqaga kiritish singari nuqsonlar stilistik xatolar hisoblanadi.


Stilistik xatolarni aniqlash va belgilashda gap tarkibidagi ma'lum bir so'zni, so'zdagi tovushlarni ishlatishdan to xat boshiga va bir butun matnga qadar bo'lgan nutq hisobga olinadi. Shuningdek gaplardagi intonatsiya noaniqlikka olib kelsa, stilistik xato hisoblanadi.

Faoliyatim davomida kuzatishlarim shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarni yozma nutqlarida fikrni tugatmaslik, bir xil fikrni takrorlash kabi nuqsonlar ham stilistik xatolardir.

Stilistik xatolarning orfografik xatolardan farqi shundaki, orfografik xatolar gap mazmunini o'zgartirmaydi, stilistik xatolar esa o'zgartiradi. Orfografik xatosi bo'lmagan gapda stilistik xato bo'lishi mumkin, masalan: *Yo'lchi Mirzakarimboyning eshigida ishlab yurgan vaqtda Yormatning qizi Gulnorni yaxshi ko'rib qoladi.* Bu gap quyidagicha tuzilishi zarur edi: *Yo'lchi Mirzakarimboy xonadonida ishlab yurgan vaqtda Yormatning qizi Gulnorni sevib qoladi.*

O'quvchilarning yozma nutqida *art, ort; bas, bos; asr, asir; vafo, vabo; mard, mart* kabi so'zlarni ishlatishda uchraydigan nuqsonlarni orfografik xatoga emas, balki stilistik xato qatoriga kiritish zarur, chunki bunday xatolar gap mazmuniga ta'sir etadi, masalan: *O'sha damlardan buyon qancha yillar, asirlar o'tti.*

O'quvchilarning yo'zma ishlarida stilistik xatolar quyidagi hollarda uchraydi:





1.Gapda so'zlarning o'zaro grammatik aloqaga kirtishuvida:*Toshkent ko'rkam bino qurdilar*

2.Gapni bir xilda boshlash:**Kuzda** mevalar pishdi.**Kuzda** havo soviy boshladi.**Kuzda** paxtalar ochila boshladi.

3.Fikrni izchil bayon etmaslik:*Men dam olish kunlarini maroqli o'tkazdim va Andijonga bordim.Biz dalaga chiqar ekanmiz,dehqonlar ishlayotgan edi.*

4.Gapga zarur bo'lgan biror bir bo'lakni ishlatmaslik:*Yozuvchi bu asarida eskilikning vakili tarzida tasvirlab beradi(kimni?)*

5.Gapda ortiqcha bo'lakni ishlatish:*A.Navoiy Mehrga o'xshagan qizlar,xotin-qizlar bo'lishini orzu qilgan.*

6.Sinonim so'zlar,olmoshlardan o'rinli foydalana olmaslik:**Shahnoza**- a'lochi o'quvchi.**Shahnoza** a'lo o'qish bilan uy ishlariga ham yordamlashadi.Sinfimizda **Shahnoza** singari o'quvchilar ko'p.

7.Bir xil mazmunli gaplarni takrorlash:*Suhayl botir edi.Jobir bilan olishganda,Suhayl yengdi.Chunki Suhayl qahramon edi.*

8.Gapda bir xildagi birikmani takrorlash:*Bola pastroqqa tushib,iti hurayotganini eshitib,iti hurayotgan tomonga yurib ketdi.*

9.Gap bo'laklari tarkibiga rioya etmaslik:*Har qanday she'rni Navoiy tez yodlab olar edi.*

10.Uyushiq bo'lakli gaplarda bog'lovchilar,kelishik va ko'plik qo'shimchalarini ishlatishda: *A.Navoiyning va G'.G'ulom,H.Olimjon,Q.Muhammadiy she'rlarini o'qiganman.Toshkent,Samarqandda,Buhoroda bo'lganman.*

O'qituvchi o'quvchilarning bayon va insholaridagi stilistik xatolarni bartaraf qilishda quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:

**1.Tahrir qilish.**O'qituvchi o'quvchilarning stilistik xatolarini bu usulda tuzatganda noto'g'ri qo'llangan so'z,ibora va gaplarni qizil siyoh bilan chizib ustiga to'g'risini yozib qo'yadi,lekin o'qituvchi o'quvchilar jumlasini o'z xohishicha butunlay qayta qurish,qoldirilgan o'rinlarni qo'shish singari, o'quvchilar fikriga putur yetkazadigan darajada tuzatishlardan saqlanishi zarur,chunonchi,o'quvchining *Biz cho'llarni keng maysazorlarga, go'zal bog'lar aylantirdik* jumlasini *Cho'llarni bepoyon maysazorlar va ko'rkam bog'larga aylantirdik* tarzida to'g'irlamaslik kerak. Chunki bunday tahrir qilinganda,o'quvchining mustaqil jumla tuzish yo'lidagi tashabbusi va intilishi to'silgan bo'ladi.

**2.Stilistik xatolar ustiga chizib,daftar hoshiyasiga turki izohlar yozish.**Bu usulda daftar hoshiyasiga:"Bu so'z ortiqcha","Bu so'zni ko'p takrorlabsan","Boshqa so'z toping","Ega va kesim moslashmagan","Soz tartibi,fikt qaytarilgan","Gap tugamay qolgan","Gapni qayta tuzing" singari qisqa,aniq izohlar yozish foydalidir.Xatolarni ko'rsatishda daftar hoshiyasiga so'roq,undov va boshqa belgilar qo'yish, "Bunday bo'lmasligi kerak","Gap tuzishni bilmabsiz" kabi o'quvchilarni ranjitadigan gaplar yozmaslik ma'quldir. Daftar hoshiyasiga yoziladigan izohlarni





aniq bo'lmashligi va ortiqcha belgilarning qo'yilishi o'quvchilarni ikkilantiradi, xatolarni tuzatish ishini og'irlashtiradi. Agar stilistik xato so'zda ma'lum harfni yoki qo'shimchani ishlatishda bo'lsa, shu harf yoki qo'shimchani ostiga chizish foydalidir.

**3. Daftar hoshiyasiga turli shartli belgilar qo'yish.** Bu usul yuqori sinflarda qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Shartli belgilar haqida o'quvchilarga yozma ishlarda ishlatilishidan oldin tushuncha beriladi. Sinf doskasiga belgilar va ularning izohlari yoziladi. O'quvchilar tushuntirish berilgandan so'ng, doskaga yozilganlarni daftarlariga ko'chirib oladilar.

O'quvchilar stilistik xatolarini tuzatishda o'rgatish yuzasidan maxsus darslar ham o'tkazish kerak. Bu darslarda stilistik xatolarni daftar hoshiyasiga yozilgan izohlar asosida, shartli belgilar asosida tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Bunda ishni quyidagicha uyushtirish lozim:

1. O'quvchilarning bayon yoki insholaridan kichik stilistik xatolari bo'lgan 4,5 ta gap tanlab olinadi. Bu gaplar sinf doskasining bir tomoniga yozilib, oldin orfografik jihatdan ko'rib chiqiladi, so'ngra o'quvchilarning faol ishtirokida undagi stilistik xatolar aniqlanadi va gapning tuzatilgan variant doskaning ikkinchi tomoniga yoziladi, chunonchi:

<b>Noto'g'ri</b>	<b>To'g'ri</b>
Bolalarni to'g'ri Alisher aka sinfga yetaklab keldi	Bolalarni Alisher aka to'g'ri sinfga yetaklab keldi
Biz ham deyman yorug'lik yo'lga tushib ketsak deyman	Biz ham yorug' yo'lga tushib olsak deyman

O'quvchilar doskadagi xatosi tuzatilgan gaplarni daftariga ko'chirib oladilar.

Shundan keyin o'quvchilarning yozma ishlari tarqatiladi. Ular yozma ishlarini o'qiydilar, undagi stilistik xatolarni aniqlaydilar va to'g'rilaydilar. Bu paytda o'qituvchi o'quvchilarning ishlarini kuzatib boradi. Ularning savollariga javob berib, yordamlashadi. 3,4 o'quvchining ishini o'qitib ko'radi. So'ng u uyga bajarib kelishi uchun 4,5 ta stilistik xatoli gap yozdiradi.

Stilistik xatolarni tuzatish darslarini quyidagicha uyushtirish ham mumkin. O'quvchilarning yozma ishlaridan olingan kichikroq matn parchasi olinadi va shu parchadagi stilistik xatosi bo'lgan gaplar oxiriga undagi xatolarni ko'rsatuvchi shartli belgilar qo'yiladi. Shundan keyin matn o'qitiladi, shartli belgilar asosida har bir gapdagi stilistik xato o'quvchilar muhokamasida topilib, to'g'irlanadi va doskaning ikkinchi tomoniga yoziladi. O'quvchilar doskaga yozilganlarni daftarlariga ko'chirib oladilar. Shundan keyin o'quvchilarning mustaqil ishlari boshlanadi. O'qituvchi 4,5 ta gapdan iborat bo'lgan stilistik xatoli matn yozdiradi. O'quvchilar o'qituvchining ko'magida undagi stilistik xatolarni to'g'rlab qayta yozadilar. Topshiriqning qanday bajarilganligi 2,3 ta o'quvchiga o'qitilib tekshirilib ko'riladi. So'ngra o'quvchilarning insho daftarlari tarqatiladi va undagi stilistik nuqsonli gaplarni ko'chirib xatolarini tuzatish uyga vazifa qilib topshiriladi.





O'quvchilarning bayon va insholaridagi stilistik xatolarni bartaraf qilib borish ularni umumiy savodxonligining yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYORLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-son farmoni. 09.01.2019 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3907-son qarori, 14.08.2018 yil.
3. S. Qo'shoqov. Dialektika va bilish nazariyasi. 2013.
4. U.Alimov. Oilada farzand tarbiyasi. T – 2017.
5. BMT ning Bola xuquqlari kafolatlari to'g'risidagi dasturi. 2019-yil.
6. Maxsus pedagogika L.Mo'minova, M.Ayupova. D.Nurkeldiyeva Toshkent 2012.
7. Maxsus psixologiya D.B.Yakubjonova, A.Abidova. Toshkent 2013. 272-bet.

